TASDIQLAYMAN
Toshkent davlat tibbiyot
Universiteti Rektori
Sh.A. Boymuradov
“____” _____ 2025

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

XALQARO TALABALAR UCHUN ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATINI RAG‘BATLANTIRISH STIPENDIYALARINI TASHKIL ETISH TO‘G‘RISIDA

Toshkent davlat tibbiyot universitetida xalqaro akademik hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga keng jalb etish, ularning ilmiy salohiyati va tadqiqot natijalarini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, turli mamlakatlardan, jumladan daromadi past va quyi o‘rta daromadli mamlakatlardan kelgan iqtidorli talabalar uchun ilmiy faoliyatda teng imkoniyatlar yaratish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Universitetda tahsil olayotgan xalqaro talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etish va ularning ilmiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan stipendiya dasturi tashkil etilsin.

2. Stipendiya dasturi barcha xalqaro talabalar uchun ochiq bo‘lib, stipendiyalar ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi ishtiroki, ilmiy salohiyati, akademik natijalari va taqdim etilgan ilmiy ishlarining sifati asosida belgilangan tartibda ajratilsin.

3. Stipendiya dasturi doirasida quyidagi ilmiy yo‘nalishlar qo‘llab-quvvatlansin:

3.1. tibbiyot va sog‘liqni saqlash sohasidagi ilmiy-tadqiqot loyihalari;

3.2. klinik, fundamental va amaliy tibbiyot bo‘yicha tadqiqotlar;

3.3. biotibbiyot, molekulyar biologiya, genetika, farmakologiya va boshqa turdosh ilmiy yo‘nalishlar;

3.4. ilmiy maqolalar, konferensiya materiallari, tezislar va boshqa ilmiy natijalarni tayyorlash;

3.5. universitet professor-o‘qituvchilari va ilmiy rahbarlari bilan hamkorlikdagi tadqiqot faoliyati.

4. Xalqaro hamkorlik va ilmiy faoliyat uchun mas’ul bo‘linmalar tegishli fakultetlar, kafedralar va ilmiy rahbarlar bilan birgalikda:

4.1. stipendiya olish uchun arizalarni qabul qilish va talabgorlarning ilmiy faoliyatiga oid hujjatlarni ko‘rib chiqish;

4.2. talabgorlarning akademik natijalari, ilmiy loyihalardagi ishtiroki, ilmiy nashrlari va tadqiqot rejalari bo‘yicha xolis baholashni tashkil etish;

4.3. stipendiya oluvchilarni aniqlash bo‘yicha takliflarni belgilangan tartibda universitet rahbariyatiga kiritish;

4.4. stipendiya oluvchilarning ilmiy faoliyati va erishilgan natijalarini davriy monitoring qilish vazifalarini amalga oshirsin.

5. Stipendiya miqdori, ajratish muddati, moliyalashtirish manbasi, tanlov mezonlari va to‘lov tartibi universitetning moliyaviy imkoniyatlari hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlardan kelib chiqib, alohida tasdiqlansin.

6. Stipendiya dasturida ishtirok etish barcha xalqaro talabalar, shu jumladan daromadi past va quyi o‘rta daromadli mamlakatlardan kelgan talabalar uchun teng shartlarda ta’minlansin. Talabgorlarni baholashda mamlakat kelib chiqishi bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘yilmasin.

7. Stipendiya dasturining amalga oshirilishi, stipendiya oluvchilar soni, ularning mamlakatlari, ilmiy yo‘nalishlari, ajratilgan mablag‘lar va ilmiy natijalar bo‘yicha hisob yuritilsin. Tegishli ma’lumotlarni e’lon qilishda shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish talablari bajarilsin.

APPROVED
Rector of Tashkent State Medical University
_____ Sh.A. Boymuradov
“ ” _____ 2025

TASHKENT STATE MEDICAL UNIVERSITY

ON ESTABLISHING SCHOLARSHIPS TO PROMOTE RESEARCH ACTIVITIES AMONG INTERNATIONAL STUDENTS

In order to strengthen international academic cooperation at Tashkent State Medical University, engage international students more actively in research, support their research potential and outputs, and provide equal opportunities for students from different countries, including low-income and lower-middle-income countries, to participate in scientific activities,

I HEREBY ORDER:

1. A scholarship programme shall be established to engage international students enrolled at the University in research activities and support their scientific initiatives.

2. The scholarship programme shall be open to all international students. Scholarships shall be awarded in accordance with the established procedure, taking into account applicants’ participation in research, research potential, academic performance and the quality of submitted research work.

3. The programme shall support the following research areas:

3.1. medical and health sciences research projects;

3.2. clinical, fundamental and applied medical research;

3.3. biomedicine, molecular biology, genetics, pharmacology and related research fields;

3.4. the preparation of scientific articles, conference papers, abstracts and other research outputs;

3.5. research conducted in collaboration with the University’s academic staff and research supervisors.

4. The units responsible for international cooperation and research, together with the relevant faculties, departments and research supervisors, shall:

4.1. receive scholarship applications and review documents relating to applicants’ research activities;

4.2. organise an objective assessment of applicants’ academic performance, participation in research projects, publications and research plans;

4.3. submit recommendations on scholarship recipients to the University management in accordance with the established procedure;

4.4. periodically monitor the research activities and outcomes of scholarship recipients.

5. The scholarship amount, award period, funding source, selection criteria and payment procedure shall be approved separately, taking into account the University's financial capacity and applicable regulatory requirements.

6. Equal access to the scholarship programme shall be ensured for all international students, including students from low-income and lower-middle-income countries. Applicants shall not be discriminated against on the basis of their country of origin.

7. Records shall be maintained on the implementation of the programme, including the number of recipients, their countries of origin, research areas, funds allocated and research outputs. Personal data protection requirements shall be observed when publishing relevant information.